



**PERSONAJLAR NUTQINING TARJIMADA QAYTA TALQIN QILINISHI
(A.L.QOZONCHI VA AZIZ NESIN ASARLARI MISOLIDA)**

Quvonchbek Juraqulov

TDSHU stajyor-o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya. *Mazkur maqola yozuvchining o'ziga xos uslubini aniqlashga bag'ishlangan. Bunda tadqiqot obyekti sisatida turk yozuvchilarining yozgan asarlarida yozuvchiga xos bo'lgan uslub unsurlaridan bo'lmish asar qahramonlari nutqining tarjimasi xizmat qiladi. Asarlarda yozuvchi uslubiga xos bo'lgan personajlar nutqi tarjimasi bilan asliyatdag'i na'munalari tahlilga tortilgan. Yozuvchilar personajlar nutqiga yashirgan yashirin ma'nolarni tarjimonlar qay tarzda tarjima qilganiga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlari: muallif uslubi, personaj nutqi, tarjima, asliyat, tarjima matni,

KIRISH

Muallif uslubi deganda biror bir muallifning muayyan bir davrda yaratgan asarlarida doim uchrab turadigan yoki uning butun ijodiga xos asosiy unsurlar majmuasi tushuniladi¹⁴. Yozuvchining badiiy xarakter yaratishdagi o'ziga xos tili, tasvirlash manerasi. Har bir chinakam ijodkor o'z uslubiga ega bo'ladi. Masalan, Navoiy g'azallari yuksak badiiyligi, fikrlarning teranligi bilan, Bobur asarlari esa musiqiyligi, tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Uslub ijodkorning o'zligini, mustaqilligini belgilaydi. Ammo uslubni yozuvchi o'zi o'yab chiqqargan narsa deb qarash kerak emas. Ijodkor o'zidan avvalgi adib va shoirlarning asarlari bilan tanishar ekan, ulardan o'rganadi. Yozuvchilar o'zaro o'xshash bo'lishlari mumkin, lekin albatta, farqli jihatlari ham bo'ladi. Inson badiiy asar o'qir ekan asardagi ma'no bilan birlikda yozuvchining tushuntirish tili, badiiy uslubiga ham ahamiyatlidir.

Aziz Nesin, asl ismi Mehmet Nusret Nesin bo'lib, 1915-yil 20-dekabrda Istanbulda tug'ilgan va 1995-yil 6-iyulda Izmirda vafot etgan taniqli turk yozuvchisi va hajviyotchisidir. U qisqa hikoyalar, teatr asarlari va she'rlar kabi turli janrlarda ko'plab asarlar yaratgan.

Hayoti davomida turli qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsa-da, Aziz Nesin hajjni qarshilik ko'rsatish vositasi sisatida ishlatgan. U o'z asarlari tufayli ko'pincha senzura va sudlarga duch kelgan. Harbiy maktablarda o'qigan, bir muddat harbiy xizmatni o'tagan, ammo keyinchalik armiyani tark etgan. Turli ishlarda ishlagandan so'ng, jurnalistika va yozuvchilik bilan shug'ullangan. U Sabahattin Ali bilan birgalikda "Marko Paşa" nomli hajviy jurnalni chiqqargan, turli gazetlarda ruknlar yozgan. 1962-yilda "Zübük" nomli hajviy jurnalni nashr etgan.

Uning asarlari turk adabiyotida muhim o'rinn tutadi. "Yaşar Ne Yaşar Ne Yaşamaz", "Zübük", "Şimdiki Çocuklar Harika" va "Fil Hamdi" uning eng mashhur asarlaridandir. Uning asarlari nafaqat adabiyot olamida, balki kino va teatr sohasida ham katta rezonansga sabab bo'lgan. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, Aziz Nesinning asarlari turk tilida ijod qiluvchi yozuvchilar orasida asarlari eng ko'p xorijiy tillarga tarjima qilingan to'rtinchi ijodkordir.

¹⁴ Salomov G'. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 60.

Aziz Nesinning hazil-mutoyiba tushunchasi ijtimoiy tanqidga asoslangan. U o‘z asarlarida kundalik hayotdan olingan personajlarni hajviy tilda tasvirlar ekan, ijtimoiy muammolarni ham savol ostiga qo‘yadi. Byurokratiya, korrupsiyaga botgan siyosatchilar va ijtimoiyadolatsizlik kabi mavzularni tez-tez tilga olgan. U hazilni nafaqat ko‘ngilochar vosita sifatida ko‘rmagan, balki ijtimoiy o‘zgarish va xabardorlikning muhim vositasi sifatida ham foydalangan.

Tatqiqot uchun ham mana shunday hajviy asar hisoblangan “Odamni majburan tellba qilashadi” hikoyasida ham yozuvchining jamoiyatdagi bo‘ayotgan kamchiliklar va muammolar qiyagan, yozuvchilar bunday vaziyatlarda, albatta, hajv yo‘li bilan jamiyatdagi og‘ir vaziyatlarni yozib chiqishadi. Aziz Nesinning qalamiga mansub asarlarni o‘qir ekansiz, undagi uslub juda ham nozik ekanligiga guvoh bo‘lasiz.

Maqsad va vazifalar: Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, muallif uslubiga xos xususiyatlarni aniqlash. A.L.Qozonchi va Aziz Nesin asarlari va tarjima matnlari ko‘rib chiqiladi. Ishning vazifalari quyidagilar:

–A.L.Qozonchi va Aziz Nesin uslubiga xos bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash;

– Muallif uslubiga xos bo‘lgan xususiyatlarni tarjimada berilishini aniqlash;

Usullar: Muallif uslubini tarjimada saqlab qolishini aniqlashda A.L.Qozonchi va Aziz Nesin asari asl nusxasi va o‘zbekcha tarjimasi qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi: A.L.Qozonchining “*O‘gay ona*” va Aziz Nesinning “Odamni majburan telba qilishadi” asarlarining asli va o‘zbekcha tarjimasi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida A.L.Qozonchining “*O‘gay ona*” va Aziz Nesinning “Odamni majburan telba qilishadi” asarlaridagi personajlar nutqi xos bo‘lgan xususiyatlar: dialoglardagi jumla qurilishi, qahramonlar nutqi, ifoda shakli kabilarning tarjimada saqlanib qolganligini aniqlashdir.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Ahmat Lutfi Qozonchi “*O‘gay ona*” romanini juda ham soda tilda yozgan. Bu asar 1971-yilda yozilgan bo‘lgani uchun ba’zi eski so‘zlat uchraydi, ammo bu o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi. O‘quvchi bu asarni o‘qish davomida o‘qishga qiyalmaydi. Adabiyotda shunday asarlar borki, ularni o‘qish va tushunish o‘quvchi uchun biroz qiyinchilik tug‘diradi. Shu bilan birga yozuvchi xalq ishlata digan soda tilda o‘z asarlarini yozgan. Asar mobaynida yozuvchi jamiyatdagi ba’zi muammolarni birib o‘tishga harakat qilgan. Barcha xalqlarda mayjud bo‘lgan g‘iybatchilik, jamiyatda behudaga vaqtini o‘tkazish, bolalar o‘rtasida yoshi kattalarga bo‘lgan behurmatlik, tamaki mahsulotlariga o‘rganib qolish, san’atkorlarning oddiy aholi uchun qilayotgan ta’siri, bilimsizlik va birovning haqini yeyish kabi muammolarni asarida berib o‘tgan. Asarning asosiy g‘oyasi yetimlarga muhabbat va shavfqat bilan bo‘lish bo‘lsa, yetimlarga bo‘layotgan yomon munosabat, yetimlar o‘gay ona qo‘lida qanchalik qynalayotganini ham ko‘rsatib o‘tadi. Asarning boshida xuddi shunday o‘gay ona zulmidan aziyat chekkan Ismoil ismli bola haqida gap boradi. Uning boshiga tushgan tashvishlar, o‘gay onasi qilgan zulmlari, onasizlikdan chekkan qayg‘u-alamlari, onasi yo‘q bo‘lgani yetmaganday otasi ham o‘gay onasi tarafga o‘tib olib qilgan qilmishlarini tasvirlab o‘tadi. Yozuvchi bu qahramon haqida shunchaki

gapirib o'tmaydi, balki uni voqealar rivojida asosiy ro'liga olib chiqadi va o'z qizini unga turmushga beradi. Shu yo'l bilan ikki emas, balki uch yetimga g'amxo'rlik qiladi.

Personajlarning o'z nutqi bo'lib, u adabiy tildan farqlanadi, ular qiyin so'zlarni ba'zan buzib talaffuz qiladilar - asl nusxada o'z aksini topgan bu so'zlashuv uslubi tarjimada ham imkon qadar asliga xos berilishi kerak. Masalan, Vasilly Shukshinning bir qahramoni yozuvchilikni havas qiladi, biroq uning adabiyotdan savodi haminqadarki, hikoya so'zini to'g'ri yozolmaydi - "packac" deb yozadi. Uni O'Hoshimov va X.Sultonovlar "hikoya" deb tarjima qiladilar. X.Ahrorova esa rus mujiklari tilida kelgan "фершат", "рожество", "аблакат" kabi so'zlarini "фельшер", "рождество", "адвокат" tarzida tuzatib tarjima qiladiki, bu qahramonlar nutqining tabiiyligini yo'qqqa chiqaradi¹⁵.

V.Xinkisning fikricha, asl nusxdagi sheva elementlarini tarjima qilinayotgan tilidagi aynan sheva so'zlar bilan berish shart emas, uni so'zlarning o'zaro birikishi - sintaksis yordamida ham ifodalasa bo'ldi. Tarjimashunos M.Loriening fikri ham shunday bo'lib, shevalarni tarjima qilishda ona tilidagi biror shevadan foydalanmay, uni sintaksis va ma'lum intonatsiya yordamida ham aks ettirish mumkin¹⁶. S.Olimov ham F.Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanini tarjimasida Toshkent shevasiga xos "shag'am", "ha-de", "talinka", "o'zi" o'mida "o'zligi" so'zlarini qo'llagani uchun I.G'aurovni tanqid qilgan edi¹⁷.

Ba'zi yozuvchilar asarning jonli bo'llishi uchun personajlar nutqida mahalliy so'zlardan, shevaga oid so'zlardan foydalanadi. Shu yo'l bilan yozuvchi personajlar haqida ba'zi ma'lumotlarni bermasa ham, u ma'lumotlar bilinib turadi. Masalan: qahramonning qayerdanligi, savodxonlik darajasi, dunyoqarashi va e'tiqodi kabilar yozuvchi ifoda qilmasa ham, o'quvchi u qahramon haqida bilib turadi. Ahmat Lutfi Qozonchi bu asarida mahalliy va shevaga oid so'zlardan foydalamagan, lekin yozuvchi personajlar nutqiga qo'shimcha ma'no yuklamagan degan fikrga borish xato hisoblanadi. Yozuvchi personajlar nutqi vositasida asar qahramonlarining e'tiqodi qay qarajadla ekanligi, savodxonlik darajasi, dunyoqarashi va qahramonning o'sha paytdagi his-tuyg'ularini bilib olishimiz mumkin. Ba'zi personajlar nutqiga aloqador misollar orqali yugoridagi fikrlarni daraklab o'tamiz.

– "Nereye boy'e Ümmü Seleme?..

– *Medine'yeye gidiyorum.*

– *Hani kimse yok yaninda!..*

– *Allah'tan başka kimsem yok.*

– *Seni boy'e yalnız başma burakamam* ..

– "Qayerga, ey Ummu Salama?

– Madinaga ketiyapman.

– Nega yoningda hech kim yo'q?

¹⁵Hazratqulov M. Uslob va tarjima haqida ba'zi kuzatishlar // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 4-kitob. 1978. 271-272-betlar

¹⁶Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badliy tarjima – do'stlik Kuroli (Maqolalar to'plami). 33-34-betlar.

¹⁷Olimov S. Ikkinchchi tashrif // Tarjima san'ati. 5-kitob. 251-bet.

¹⁸Kazancı A. Peygamberimiz neden inanmadular? – Izmir: İşik yayınları, 2006. – S. 44



-Ha, Allohdan boshqa hech kimin yo'q.

-Seni yolg'iz qot'ib yuhora olmayman¹⁹.

Umuman olib qaralganda, qahramon jonli nutqi yaxshi tarjima qilingan, lekin "Ham kimse yok yannda?" gapini "Nega hech kim yo'q yoningda?" deb tarjima qilish maqsadga muvofig. Yozuvchi bunday gap qurilishi bilan qahramon hayronligi, taqjibublanganligini bildirgan bo'shliki mumkin. Shuning uchun dialog tarjima jarayonida qahramon shevada gapirsma, uning shevada gapirlanligini bildirish maqsadida gap qurilishini o'zgartirib uning nooddatiligini bildirish kerak.

Danlim yoksa. Bir daha bana abla deme öyleyse. [Kazancı A. Üvey anne.15]

Tarjimasi: Agar olmasang, boshqa opa dema. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarları. 12].

Yuqoridağı gapda qahramonning his-tuyg'ularini ifodalash maqsadida gap qurulishini o'zgartirgan. Bu ham personajlar nutqining joni bo'shib turishiga xizmat qiladi. Bu tarjimada chiqarib berilmagan bu gapni quyidagicha tarchima qilib qaraydig'an bo'lsak, personaj nutqining jonliligidini his qilamiz: xafa bo'laman, agar. Bundan keyin menga opa dema unaqada. Y.Egamovaning yozishchicha: "Personajlar nutqidagi joni nutq elementdarini muvaffaqiyatli o'girish uchun rasmiy lug`atlarga emas, xalq tiliga tayanish kerak. Negaki, jonli tilga oid so`zlar ko`pincha lug`atlarda qayd qilinmaydi, bo`lganlari ham aksari hollarda muayyan kontekst ruhiga mos kelavermasligi mumkin. Shu sababli tarjimaning asl nusxaga nechog`lik yaqin bo`lishi tarjimon mahoratiga, xalq tilini qay darajada egallaganiga ko`p jihatdan bog`liq bo`ladi"²⁰.

Ben senin ablan değil miyim İsmail? Her zaman gel yamma. [Kazancı A. Üvey anne. 16]

Tarjimasi: Men senga opa bo'lmay, kimman? Yonimga tez-tez kelib tur. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarları. 13].

Yuqoridağı gapda ham gap qurulishi o'zargan, buning sababi esa gap urg'usi bo'ladi. İkkinci gapdagı her zaman ge/yamma gapida gap urg'usi oxirgi so'zga ya'nı yonimga so'ziga tushadi. Qahramon bu bilan gapdagi o'sha ma'noga urg'u bermoqda. Ne yaptın aşağıda Fatma? [Kazancı A. Üvey anne. 17] Tarjimasi: Pastda nima qilib yuruvding Fotima? [A.L.Qozonchi. Eng sara asarları. 13].

Yozuvchilar atayin shunday gap qurilishidan soydalanadi, chunki gapiroytan payimiz grammatic qoidalarga amal qilmasligimizi aks ettiради. Biz ham aslida gapning kesimini hadoim gapning oxiriga qo'ymasdan gap o'rasisida yokş boshida ishlatalim. Jonli nutqui o'quvchiga his qildirish maqsadida qilingan bu ishni tarjimada to'g'rilab qo'yish unchalik ham yaxshi emas. Bu gapni nima qilding pastda, Fotima? Deb tarjima qilsak maqsadga muvofig bo'lardi.

Yozuvchi bu bilan asar qahramonining qayerdan ekanligini aytmasdan uning nutqi bilan qayerdanligini o'quvchiga ma'lum qiladi. Yozuvchilarning bunday yo'l tutishi asarga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. shevada gapirligan nutqni tarjima qilish jarayonida uni, albatta, shevada tarjima qilish kerak degan tushuncha yo'q, balki u qahramon shevada gapirganini

¹⁹ Qozonchi A.L. Rasulullohga nega ishonmadilar?. – Toshkent: Munir, 2021. – B. 44

²⁰ Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlariningizohli lug'ati. Toshkent, 2014. 52-B. 207B

International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS



qum bir vositalar orqali ifodalash kerak, masalan, gap qurulishini o'zgartirish orqali. Yoki yosh bolaning nutqida bola "I" harfini aya olmayapti, tarjimada ham bior nuqson bilan gapitirish kerak. Qahramon his-hayajon bilan gapirgan bo'lsa yoki gap qurulishiha umuman e'tbor bermasdan gapirsra, demak, tarjimon ham uni tarjimada iloji boricha shunday tarjima qilish kerak. Gap qurulishi buzib ayilgan gapni qanday tarjima qilganini quyidagi gapda ko'rib chiqamiz:

Aldatyorlar yavum seni [Kazancı A. Üvey anne. 63].

Tarjiması: *Seni ham aldashmoqda, gudagim* [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 54].

Tarjiması: *Seni aldashmoqda, go'dagim* [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 50]

Yuqoridaqı gapda gap qurulishi qoidasiga amal qiliňmagan. Har ikkala tarjimada ham gap qurulishiga amal qilgan holda tarjima qilgan, bu xato hisoblanmasa ham, yozuvchi uslubining to'g'ri o'g'rilishiga to'g'onoq bo'ladi. Turk tilidagi *yavru so'zini go'dagim deb tarjima qilgan*, bu yerda u so'zni go'dak so'zi bilan emas, bola so'zi bilan berganda yaxshi bo'lar edi. Yuqoridagi gapni quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi: aldashyapti, bolam, semi. O'zidan nega bunday tarjima qilish kerak degan savol tug'ulishi mumkin. bunday vaziyatda gap urg'usi sen so'ziga tushgan va personajlar nutqini jonli qilib chiqarish maqsadida bunday yo'l tutilgan biz uni to'g'rilab terjima qilsak, biroz xatolikka yo'l qu'yan bo'lamiz.

Peki kim söylüyor bunları oğlum? [Kazancı A. Üvey anne. 74].

Tarjiması: *Xo'sh, kim gapirdi bularni, o'g'llim?* [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari.63].

Tarjiması: – *Xo'sh, kim gapirdi bularni, o'g'llim?* [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 52]

Yuqoridaqı gapda tarjimon personajlar nutqini juda yaxshı shaklda tarjima qilgan. Tarjima jarayonida shu bilan birga asliyat matnda mayjud bo'lmagan gaplar ham qo'shib tarjima qilish orqali o'quvchining matnni yanada yaxshiroq anglab yetishiga xizmat qilishi mumkin. Bunday gaplarga quyidagi misollar bilan izoh berishimiz mumkin:

Odamlar ma'qillay boshladilar [Aziz N. Adam] zorla deli ederler. 8].

Ular biri olib, biri qo'yib og'iz ko'pitirishdi [Aziz N. Adam] zorla deli ederler. 9].

Suhbaodsharning biri: [Aziz N. Adam] zorla deli ederler. 10].

Xulosa: Muallif uslubi deganda bior bir yozuvchi ma'lum vaqt ichida yoki ma'lum bir asar yaratishda ishlatsan usullar tushumiladi. Taniqli va adabiyotda o'z o'miga ega yozuvchi bo'lish uchun ijodkor o'z uslubini yaratish kerak. Tatqiqotimizda o'rganmilyotgan yozuvchi o'z uslubini yaratma olgan yozuvchi hisoblanadi. Yozuvchining tili soddaligi va xalqning muloqotagi tilini o'z asarlariga ko'chirgani bilan boshqa turk yozuvchilaridan ajralib turadi. Xalqning joni muloqot tili deganda mahalliy shevalar yoki ma'lum bir guruh insonlarigagina tushunari bo'lgan tilda yozilgan degan fikrdan yiroqmiz. Ifoda usullaridan ham keng foydalangan. Adib til imkoniyatlaridan juda keng tarzda foydalangan. Personajlar nutqiga alohida e'tibor qaratib unga turli qo'shimcha ma'nolar yuklagan.

Yozuvchilar o'z uslublari bilan boshqa yozuvchilardan farq qiladi. Bu asarda ham boshqa asarlardan farq qilinishiming sababi boshqa shu mavzuda yozilgan asarlardan ifoda usullari, voqealar rivoji, tili qandayligidir. Asar o'tgan asrda yozilgan bo'lishiga



qaramasdan eski so'zlardan u qadar ko'p foydalannagan, asar tili sodda o'quvchini zeriktiradigan darajada murakkab jumllalar, qahramonlar bilan yozilmagan. Asar xalqning jonli tilida yozilgan bo'lib o'quvchini vaqtini unimli o'tkazish bilan birga unga tarbiya ham beradigan bir asar hsoblanadi. Bu asar o'zbek tiliga o'girilar ekan ba'zi joylarda kamchiliklarni hisobga olmasak yozuvchi uslubini saqlab qolgan deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXARI:

1. Salomov G. Tarjima nazaryasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1983.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazaryi masalalari (o'quv qo'llanma). - T.: 2014. 272 b
3. Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badiiy tarjima – do'stlk quroli (Maqolalar to`plami). - Toshkent, 2017. 33-34-betlar.
4. Kazancı A. Üvey anne. - İstanbul: Ensar Neşriyet, 2017. 232 b.
5. Qozonchi A. L. Eng sara asarlari. - Toshkent: Book Media Nashr, 2020. - 592 b.
6. Aziz Nesin. Adam zorla deli ederler. - İstanbul: Adam yaynları, 2005. - 192 b.
7. Önal Mehmet. Edebi dil ve üslup. - Erzurum: Ataturk üniversitesi, Türkiyat araştırmalar enstitüsü dergisi, 2008. - 210 s.
8. Durmuş İsmail. Üslup cilt II. - İstanbul: TDV İslam ansiklopedisi, 2012. - 96 s.
9. Çoban Ahmet. Edebiyatta üslup üzerine. - Ankara: Akçağ, 2004. - 160 s.
10. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliliklarning funksional uslubiy xususiyati: Fiol. fan. nomz. ...diss. - Toshkent, 1993. - 297 b.